



MILLIY IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

*Navruzov Ikram Abdullaevich -
Toshkent moliya instituti, "Baholash ishi va
investitsiyalar" kafedrası katta o'qituvchisi*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a48

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'rni bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan maqsadli foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimlashtirilgan. Bu borada mavjud muammolar va ularning investitsion faoliyatga ta'siri baholangan. Iqtisodiyotning tarmoq va sohaları faoliyatida xorijiy investitsiyalardan maqsadli foydalanish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, xalqaro kapital harakati, investitsion imtiyoz, investitsiya siyosati, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, investitsion faoliyat.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В НАЦИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ

*Наврузов Икрам Абдуллаевич -
Ташкентский финансовый институт, старший
преподаватель кафедры «Оценочное дело и инвестиции»*

Аннотация. В статье рассматриваются процессы, связанные с ролью прямых иностранных инвестиций в социально-экономическом развитии нашей страны. Систематизированы факторы, влияющие на процесс целевого использования прямых иностранных инвестиций в экономику нашей страны. В связи с этим были оценены существующие проблемы и их влияние на инвестиционную деятельность. Сформулированы научные предложения и практические рекомендации, направленные на совершенствование системы привлечения иностранных инвестиций и целевого использования иностранных инвестиций в деятельность отраслей и секторов экономики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, международный поток капитала, инвестиционная привилегия, инвестиционная политика, инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, инвестиционная активность.

DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENTS TO THE NATIONAL ECONOMY

*Navruzov Ikram Abdullaevich -
Tashkent Financial Institute, Senior Lecturer of the
Department "Appraisal and Investments"*

Annotation: In the article, processes related to the role of direct investments in socio-economic development are studied. Factors affecting the process of targeted use of foreign direct investments in the economy of our country are systematized. The problems in this regard and the impact on the country's investment activities were assessed. Scientific proposals and practical recommendations aimed at improving the system of attracting foreign investments and the targeted use of foreign investments in the activities of sectors and sectors of the economy have been formulated.

Key words: foreign investment, foreign direct investment, international capital movement, investment privilege, investment policy, investment environment, investment attractiveness, investment activity.

Kirish. Investitsion faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini ta'minlash jarayoni investitsion faoliyatni amalga oshirishning ma'lum shakliga ustuvorlik berishni talab etadi. Investitsion imtiyozlar, uning natijalari, investitsiya muhitining jalb etilayotgan investitsiya hajmiga ta'siri kabi qator holatlar investitsion faoliyatni amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar shakliga ustuvorlik berish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu borada mamlakatimiz iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb vazifalar xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagicha to'xtalib o'tgan edi: "... investitsiya siyosatini yuritishda

davlat ishtirokini pasaytirib, xususi va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak deb takidlangan [1].

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlar roli nihoyatda muhim hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy muommolaridan biri, hududlarda ularni to'g'ri taqsimlash muommosidir. «O'zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, yetakchi chet el

kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari samaradorligini oshirish" [2] vazifasi alohida belgilab berildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy investitsiyalar yordamida iqtisodiyotning mavjud ishlab chiqarish tuzilmasi takomillashtiriladi, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar barpo etiladi, kadrlar qayta tayyorlanadi va korxonalar zamonaviy uskunalar bilan qayta jihozlanadi, boshqaruvning zamonaviy yutuqlari amaliyotga joriy qilinadi, ichki bozorda yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlar paydo bo'ladi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, eksport hajmi ortib boradi, natijada mamlakatga erkin konvertirlanadigan xorijiy valyutani kirib kelishini ta'minlaydi. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtacha va past bo'lgan mamlakatlarda xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va mustahkamlanishiga yordam beradi, yirik loyihalarni amalga oshirish va ssuda kapitali bozorlarini yaratish uchun kapital jalb qiladi. Shu munosabat bilan "xorijiy investitsiyalar" tushunchasining nazariy tahlili dolzarb hisoblanadi.

Bir qator iqtisodchi olimlarning tadqiqot ishlarida "xorijiy investitsiya" tushunchasiga turlicha ta'riflar ishlab chiqilgan. Umuman olganda G'arb iqtisodchilari va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomonidan "xorijiy investitsiya" atamasiga aniqlik kiritishda bir qancha farqlar mavjud. Buning bir qancha sabablari mavjud bo'lib, bulardan biri "xorijiy investitsiya" atamasi MDH davlatlarida mustaqillikka erishilgach, bozor iqtisodiyoti sharoitida paydo bo'lganligidir.

G'arb olimlaridan biri M.Sornaraja quyidagicha fikr bildiradi: "Xorijiy investitsiyalar bu – aktivlar egasining to'liq yoki qisman nazorati ostida moddiy boylik yaratish maqsadida foydalanish uchun moddiy va nomoddiy boyliklarni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazilishini anglatadi" [3].

A.S.Azizov – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo'jalik faoliyati ustidan qisman yoki to'liq nazoratni ta'minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta'kidlaydi [4].

A.A. Sotvoldiyev – to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hududlarni barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil etgan holda, hududda yetarli investitsiyalarning sarflanishi, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi [5].

G. Oksyutik – xorijiy investitsiyalar uzoq muddat mobaynida daromadga ega bo'lish maqsadida o'zga mamlakatga kapital joylashtirishni anglatadi. Bu turdagi investitsiyalar asosiy kapitalni yangilash va kengaytirish, investitsiya siyosatini amalga oshirish, milliy iqtisodiyotning yuksalishi va rivojlanishini ta'minlash, bozorni raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar bilan to'ldirish uchun mamlakat

resurslarini sezilarli darajada oshiradigan qo'shimcha kapital manbayi [6].

N.Karimov – xorijiy investitsiyalar – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa turdagi samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga xorijiy kapitalning kiritilishidir [7].

Xorijiy investitsiyalar aktivlar egasining to'liq yoki qisman nazorati ostida moddiy boylik yaratish maqsadida foydalanish uchun moddiy va nomoddiy boyliklarni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazilishini anglatadi [8].

M.Semochenko – xorijiy investitsiyalar – chet ellik investorlar tomonidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga joylashtiriladigan pul qiymatidagi mulkiy va nomulkiy huquqlardir [9].

N.Levensev – xorijiy investitsiyalar – muayyan bir mamlakat rezidentlarining aktivlardan foydalanish ustidan nazoratni qo'lga kiritish uchun boshqa mamlakatlarning aktivlariga egalik qilishini anglatadi [10].

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari-chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada guruhlash, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil va sintez va statistik usullardan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng muhim jihat – milliy iqtisodiyotning tobora integratsiyalashuvi va globallashtirishini kuchayib borishi natijasida xalqaro maydonda raqobatning keskinlashuvi va har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z mavqegini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu kurashda milliy iqtisodiyotga ko'proq miqdorda xorijiy investitsiyalarni jalb etib iqtisodiyotni modernizatsiyalashni tashkil etgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda yuqori darajalarga erishib jahon raqobatida ustunlik qilmoqda. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasida ham xalqaro kapital bozorida ko'proq miqdorda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishi uchun xalqaro moliya institutlariga a'zo bo'lib, rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanib investitsion faoliyatni takomillashtirib bormoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi farmoniga muvofiq, Strategik rivojlanish agentligi tashkil etilgan edi. Bu Agentlikka investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni amalga oshirishning strategik masalalarini o'rganish, investitsiya faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, xalqaro tajriba asosida iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilish va hududlarning investitsiya

salohiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli qilinmoqda.

Investitsiya loyihalarini ilgari surishning yangi mexanizmini joriy etish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya muhiti bo'yicha hududlar reytingini yo'lga qo'yish, tadbirkorlarning tizimli muammolarini aniqlash va hal qilish bo'yicha onlayn platformani ishga tushirish, Jahon banki bilan birgalikda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan faol investitsion siyosat ta'sirida to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi keskin ortib bormogda. Xususan, 2017-2021-yillarda to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi qariyb 3,5 barobarga ortdi. Mazkur davrda to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 50 foizdan yuqori ko'rsatkichni qayd etadi (1-rasm).



1-rasm. 2017-2021 yillarda to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirilishi (mln. AQSH dollar) [12].

O'zbekistonda iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari Qandim konlar guruhini o'zlashtirish va zamonaviy gazni qayta ishlash zavodini qurish hisobiga ta'minlandi. Shuningdek, Qo'ng'iro't hududida geologik qidiruv ishlarini olib borilishi, Janubiy-G'arbiy Hisor va Ustyurt hududlarida uglevodorod qazib chiqarish kabi yirik investitsiya loyihalar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan ta'minlandi. 2021-yilda milliy iqtisodiyotga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 30149,2 mlrd. so'm o'zlashtirilib, 2020 yilga nisbatan 2,3 % punktga ko'payib, jami investitsiyalarning 20,2 %ini tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ko'payishiga sabab investitsiya muhitining yaxshilanib boryotganidan dalolat beradi.


Istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqish, investitsiya va biznes forumlar, taqdimotlar («Road Show») va marketing kampaniyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni tashkil etish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etiladi.

Mamlakatimizdagi barqarorlik va qulay investitsiya muhiti natijasida tashqi iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanmogda. 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8,6 milliard dollar to'g'ri-

dan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o'rnini to'ldirish imkoniyatiga ega bo'ldi [13].

Albatta, koronavirus pandemiyasi hali-hamon iqtisodiy jarayonlarga jiddiy ta'sir o'tkazmogda. Shunga qaramay, eksportda izchil o'sishga erishilmogda. Xususan, 2020-yilda mamlakatimizda eksport miqdori 9 milliard dollardan oshgan bo'lsa, 2021-yilda 12 milliard dollarni tashkil etgan. E'tiborlisi, bunda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli ko'paygan. 2022-yilda 9 milliard 500 million dollardan ziyod to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni o'zlashtirish, 282 ta yirik va 9 mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo'ljallangan. Eksport hajmini 14 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan [14].

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan tashqi dunyo oldidagi majburiyatlar bo'yicha oqimlar «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar» komponentlariga to'g'ri keladi. 2018-2020-yillarda «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar» oqimi tushib ketgani ko'rishimiz mumkin. 2020 yilda pandemiya sababli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi qisqardi. 2020-yil natijalariga ko'ra, dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy o'sishning pasayishi tufayli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof o'sishi pasayib ketdi.



2-rasm. 2016-2020 yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'sish suratlari (foizda) [15]

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda jalb etilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishni talab etadi. Ana shu yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha yirik xorijiy investitsion loyihalarni amalga oshirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro va mintaqaviy standartlarga uyg'unlashtirish, xalqaro tajribada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xususan ularning ishlab chiqarish zanjiriga kirish orqali mahalliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash;

ishbilarmon hamkorlikni xalqaro standartlarini o'zlashtirish yo'li bilan xo'jalik yuritish va boshqarishning zamonaviy usullarini tadbqiq etish va boshqalar.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida" gi farmoni. 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son.
3. The international law on foreign investment, M.Sornarajah - 2017 - Cambridge University Press.
4. Azizov A.S. (2021) To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. - Toshkent, 2021. - 11 b.
5. Sotvoldiyev A.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'lamini oshirish yo'llari (Andijon viloyati misolida). Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. - Toshkent, 2019. - 10 b.
6. Оксютик Г.П. Иностранные инвестиции в России. Монография. - СПб.: Издательство Санкт Петербургского университета управления и экономики, 2014. - С. 11-13.
7. Каримов Н.Г. Иностранные инвестиции в экономику Республики Узбекистан и их финансовое обеспечение: автореферат дис. ... кандидата экономических наук: 08.00.10. - Т: ТФИ, 1998. - С. 6.
8. Международное право об иностранных инвестициях | Высшее образование в Кембридже (cambridge.org).
9. Семочкина М. А. Инвестиционная деятельность с участием иностранных инвесторов в Российской Федерации (правовой аспект). Дисс. на соиск. уч. ст. канд. юрид. наук. - М.: МГУ. - С. 152.
10. Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран: Учебник. - М.: Экономист, 2007. - С. 8.
11. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-son «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi qonuni, 3-modda.
12. www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
13. <https://review.uz/uz/post/v-2021-godu-uzbekistan-privlek-86-mlrd-pryamx-inostrannx-investiciy>
14. <https://yuz.uz/uz/news/investitsiyalar-samaradorligi-va-tashqi-savdo-faoliyati-muhokama-qilindi>
15. www.mift.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.